

UO'K: 378.147.228(612.311.1)

**BO'LAJAK TISH SHIFOKORLARINING KASBIY
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI O'RGANISH**

Ohinjonova Xayothon Hosiljonovna

Andijon davlat tibbiyot instituti

Propedevtik stomatologiya kafedrasi assistenti

e-mail: ohunjonovah@gmail.com

ORCID iD: 0009-0007-7030-884X

**ИССЛЕДОВАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ СТОМАТОЛОГОВ**

UO'K: 378.147.228(612.311.1)

Охунжонова Хаётхон Хосилжоновна

Андижонский государственный

медицинский институт

Ассистент кафедры

Пропедевтической стоматологии

e-mail: ohunjonovah@gmail.com

ORCID iD: 0009-0007-7030-884X

**STUDY OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE
IN FUTURE DENTISTS**

UO'K: 378.147.228(612.311.1)

Khayotkhon Khosiljonovna Okhunjonova

Andijan state medical institute

Assistant of the Department of Propaedeutic Dentistry

E-mail: ohunjonovah@gmail.com

ORCID iD: 0009-0007-7030-884X

Annotatsiya: Stomatologik ta'limning asosiy maqsadi — amaliyotchi shifokorlarning tanqidiy fikrlash va uzluksiz o'qish (o'z ustida ishlash) qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Yangi bitirgan shifokor-stomatolog mustaqil amaliy faoliyatni bemorga zarar yetkazmasdan, zamonaviy, samarali va hozirda keng qo'llanilayotgan davolash usullarini qo'llagan holda olib borishga qodir bo'lishi kerak. Xorijiy tajriba va mahalliy stomatologiya rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, stomatolog talabalarini oqilona tayyorlashning eng muhim sharti — mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi uchun yagona mezonlarni ishlab chiqishdir. O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlarining uchinchi avlod talablari asosida mutaxassislar tayyorlash jarayoni kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga qaratilishi kerak. Andijon davlat tibbiyot universitetining 3-bosqich stomatologiya fakulteti talabalar orasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish faoliyatini baholash maqsadida 137 nafar talaba o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalarini tahlil qilish asosida universitetda ta'lim jarayonini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari aniqlab olindi. Talabalar tomonidan "Terapevtik stomatologiya", "Bolalar stomatologiyasi" va "stomatologik kasalliklarning profilaktikasi" (stomatologiya fakulteti) fanlari uchun o'quv soatlarini ko'paytirish haqidagi takliflarini inobatga olgan holda, kafedra mudirlariga ushbu fanlar bo'yicha tanlov kurslarini ishlab chiqish masalasini ko'rib chiqish tavsiya etildi. Umumkasbiy va kasbiy fanlar bo'yicha ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchilar talabalar shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, ya'ni bemorlar, hamkasblar, kichik tibbiyot xodimlari hamda bemorlarning qarindoshlari bilan o'zaro muloqot asoslarini shakllantirishga alohida e'tibor berishlari lozim.

Kalit so'zlar: shifokor tayyorlash, stomatologiya, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, kasbiy kompetentlik, ta'lim jarayoni, talabalar so'rovnomasi.

Аннотация: Главной целью стоматологического образования является обеспечение способности практикующих врачей к критическому

мышлению и постоянному обучению. Только что получивший образование врач-стоматолог должен быть способен осуществлять независимую практическую работу, не причиняя вреда пациентам и применяя современные, адекватные, эффективные и общепринятые в настоящее время методы лечения. Как показывают зарубежный опыт и опыт развития отечественной стоматологии, важнейшим условием построения рациональной подготовки студентов-стоматологов является разработка единых критериев профессиональной компетенции специалиста. В соответствии с требованиями государственных образовательных стандартов Республики Узбекистан третьего поколения подготовка специалистов должна быть ориентирована на реализацию компетентного подхода. Для оценки деятельности Андижанского государственного медицинского университета по формированию профессиональных компетенций у студентов 3 курсов стоматологического факультета проведено анкетирование 137 человек. В результате анализа результатов анкетирования определены основные направления оптимизации образовательного процесса в университете в аспекте формирования профессиональной компетентности будущих специалистов. С учетом предложений студентов об увеличении количества часов для изучения дисциплин «терапевтическая стоматология», «стоматология детского возраста и профилактика стоматологических заболеваний» (стоматологический факультет) заведующим кафедрами рекомендовано рассмотреть вопрос о разработке курсов по выбору по этим дисциплинам. При организации образовательного процесса по общепрофессиональным и профессиональным дисциплинам преподавателям необходимо уделять внимание развитию у студентов социальноличностных компетенций в плане формирования основ межличностного общения с пациентами и коллегами, а также с младшим медицинским персоналом и родственниками пациентов.

Ключевые слова: подготовка врача, стоматолог, компетентностный подход. профессиональная компетентность, образовательный процесс, анкетирование студентов.

Annotation: The main purpose of stomatological education is the development of the ability of critical thinking and constant education of dentists. A stomatological graduate should be able to perform independent practical work without affecting patient's health and using modern, adequate, effective, universally adopted methods of treatment. As the foreign experience and the experience of the development of home dentistry show, the most important condition of rational teaching dental students is working out the unique criteria of professional competence of a specialist. In accordance with the requirements of the third-generation state educational standards of the Republic of Uzbekistan, the training of specialists should be focused on the implementation of a competency-based approach. To assess the activities of Andijan State Medical University in developing professional competencies among 3rd-year students of the Faculty of Dentistry, a survey was conducted among 137 students. As a result of the analysis of the survey data, the main directions for optimizing the educational process at the university in terms of forming the professional competence of future specialists were identified. Taking into account the students' suggestions to increase the number of academic hours for the subjects "Therapeutic Dentistry" and "Pediatric Dentistry and Prevention of Dental Diseases" (Faculty of Dentistry), the heads of departments were recommended to consider developing elective courses in these disciplines. When organizing the educational process in general professional and specialized disciplines, teachers should pay special attention to developing students' social and personal competencies — particularly in forming the foundations of interpersonal communication with patients, colleagues, junior medical staff, and patients' relatives.

Key words: training physician, stomatologist, competence approach, professional competence, educational process, student survey.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi oliy ta'lim muassasalaridan ta'limga yangi yondashuvni talab qiladi: bitiruvchilar tayyor bilimlar to'plamiga emas, balki bilimlarni mustaqil izlab topish, tahlil qilish va qayta ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari, tez o'zgarib borayotgan hayot va mehnat sharoitlariga moslashishga tayyor bo'lishlari kerak. Global muammolarning ortib borishi, ularni xalqaro hamkorlik doirasida hal etish zaruriyati hamda jamiyatning demokratlashuvi yoshlar orasida zamonaviy fikrlashni shakllantirishni taqozo etadi. Axborotlashuv va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi sharoitida muloqotga kirisha olish (kommunikabellik) va bag'rikenglik (tolerantlik) kabi fazilatlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Oliy tibbiy va stomatologik ta'limning maqsadi — nafaqat jamiyatning samarali tibbiy va stomatologik xizmatga bo'lgan ehtiyojini qondira oladigan, balki tibbiyot va stomatologik innovatsion texnologiyalarni qo'llay va rivojlantira oladigan, mehnat bozorida moslashuvchan va harakatchan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, o'z kasbiy faoliyati va ijtimoiy muhitini o'zgartira oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir. Barcha shu sifatlarni o'zida mujassam etgan mutaxassis kompetentli mutaxassis deb ataladi, va bunday mutaxassisni tayyorlash ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni talab etadi. Edinburg universitetining faxriy doktori J.Raven kompetensiyani ma'lum bir sohada muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos qobiliyat deb ta'riflaydi. U bu tushunchaga bilimlar, amaliy ko'nikmalar, fikrlash usuli va o'z harakatlari uchun mas'uliyatni kiritadi. Olim I.A. Zimnyaya esa kompetensiyani insonning bilimlarga asoslangan, intellektual va shaxsiy jihatdan shakllangan ijtimoiy-kasbiy faoliyat tajribasi deb ta'riflaydi. A.V. Xutorskiyning fikricha, kompetentlik — bu mutaxassisning ma'lum kompetensiyaga egaligi, ya'ni uning o'z faoliyati va unga bo'lgan shaxsiy munosabatini o'z ichiga olgan sifatidir. Oliy ta'lim muassasalari

bitiruvchilarini tayyorlash jarayonida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish — O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan uchinchi avlod davlat ta'lim standartlari talabidir. Bu yondashuv talabalarga zarur akademik, ijtimoiy-shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni egallash imkonini beradi. Standartlarga ko'ra, kompetentlik — bu o'z bilimlarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyati; kompetensiya esa — nazariy va amaliy masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy sifatlarning yig'indisidir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim jarayonida talabadan yangi rolni talab qiladi: u endilikda bilimlarning passiv iste'molchisi emas, balki ularni faol ravishda yaratadigan, tanqidiy fikrlay oladigan, mustaqil ishini rejalashtiradigan, tashabbus ko'rsata oladigan, muammolarni aniqlab, ularga nostandart vaziyatlarda ham yechim topa oladigan shaxs bo'lishi lozim. Andijon davlat tibbiyot instituti (ADTI)da o'quv jarayonini optimallashtirish, imtihon davrlariga tayyorgarlik va ularni o'tkazish jarayonida, shuningdek, talabalarining institut faoliyatiga — tibbiyot yo'nalishidagi bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi yondashuviga munosabatini o'rganish bo'yicha ma'lum tajriba to'plangan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Andijon davlat tibbiyot instituti (ADTI)ning stomatologiya fakulteti talabalari orasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha faoliyatini baholashdan iborat.

MATERIAL VA METODLAR

Andijon davlat tibbiyot instituti (ADTI) stomatologiya fakultetining 3-bosqich talabalari o'rtasida ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada jami 137 nafar stomatologiya fakulteti talabasi ishtirok etdi.

Talabalarga quyidagi so'rovnomalar taklif etildi:

Talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishni o'rganish bo'yicha so'rovnoma.

1. Siz “kompetentlik” tushunchasining mazmunini tushunasizmi?
2. “Kompetentlik” tushunchasiga ta'rif bering.

3. Siz “kasbiy kompetentlik” tushunchasining mohiyatini tushunasizmi?
4. “Kasbiy kompetentlik” tushunchasiga ta’rif bering.
5. Kelajakdagi kasbingizda qaysi kompetensiyalarni eng muhim deb hisoblaysiz?
6. Kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kompetentlik ko‘rsatkichlari deb nimani hisoblaysiz?
7. Siz yuqorida sanab o‘tilgan kompetensiyalarni universitetda o‘qish jarayonida egallayapsizmi?
8. Sizga zarur kompetensiyalarni egallashga nima to‘sqinlik qilmoqda?
Talabalarning kasbiy kompetentlik ko‘rsatkichlarini aniqlash va reyting asosida baholash bo‘yicha so‘rovnoma

1. Motivatsion mezon — kasbiy kompetentlik shakllanishining ko‘rsatkichi.

- Sizni shifokor kasbini tanlashga nima undadi?

2. Axborot-bilim mezoni — kasbiy kompetentlik shakllanishining ko‘rsatkichi.

2.1. Ta’limning turli bosqichlarida o‘z bilimlaringiz sifatini baholang.

2.2. Qaysi kasbiy fanlarni o‘rganish uchun dars soatlarini ko‘paytirish kerak, deb hisoblaysiz?

2.3. Qaysi ijtimoiy-gumanitar, umumkasbiy va kasbiy fanlar va ularning bo‘limlari uchun o‘quv soatlarini ko‘paytirish zarur, deb o‘ylaysiz?

2.4. Sizningcha, o‘qish rejangizda qaysi zarur fanlar yetishmaydi? (sanab bering)

2.5. Sizningcha, o‘quv rejangizda ortiqcha yoki kerak bo‘lmagan fanlar bormi? Agar bo‘lsa, qaysilar?

3. Amaliy-faoliyat mezoni — kasbiy kompetentlik shakllanishining ko‘rsatkichi.

- Amaliy ko‘nikmalingiz darajasini o‘zingiz baholang.

4. Baholovchi mezon — kasbiy kompetentlik shakllanishining ko‘rsatkichi.

4.1. Siz o‘z kasbiy sifatlaringizni qanday namoyon qila olasiz?

4.2. Siz bemorni tekshira olasizmi?

4.3. Tekshiruvdan so'ng o'rganilgan mavzular doirasida zarur davolash muolajasini o'tkaza olasizmi?

5. Siz deontologik muloqot tamoyillarini o'zlashtira oldingizmi?

6. Siz deontologik tamoyillarni qanday o'rgandingiz?

7. Siz shaxslararo muloqot asoslarini o'zlashtira oldingizmi?

8. Siz shaxslararo muloqotni qanday o'rgandingiz?

9. Fanlar o'qitilishi va o'qituvchilarning malaka darajasini baholang.

10. Mustaqil amaliy ishni boshlashdan oldingi hissiy holatingiz qanday?

11. Siz o'zingizni tibbiy yordam ko'rsatish bozorida raqobatbardosh mutaxassis deb hisoblaysizmi?

12. Siz olgan tibbiy ta'limni sifatli deb hisoblaysizmi?

13. O'qitish darajasi bo'yicha ADTI ni tanlaganingiz to'g'rimi deb o'ylaysizmi?

14. Oliy o'quv yurtidagi tayyorgarlik darajasini baholang.

15. Oliy o'quv yurtidan kutgan umidlaringiz o'zini oqladimi?

16. Ta'lim jarayonida siz uchun eng qiyin bo'lgan narsa nima bo'ldi?

17. Kelajakdagi shifokor uchun qaysi kasbiy sifatlar eng zarur, deb hisoblaysiz?

18. Ish beruvchilar bitiruvchilardan qaysi kasbiy va shaxsiy ko'nikmalarni talab qiladi, deb o'ylaysiz, va ularning ahamiyatini qanday baholaysiz?

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, stomatologiya fakulteti talabalari o'rtasida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mazmuni va ahamiyatini tushunish darajasi turlicha. Ko'pchilik talabalar "kompetentlik" tushunchasining mohiyatini umumiy tarzda biladi, biroq uni amaliy faoliyat bilan bog'lashda ayrim qiyinchiliklarga duch keladi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalarning aksariyati kasbiy kompetensiyani — bemor bilan muloqot qilish, mustaqil qaror qabul qilish, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish va zamonaviy usullarni qo'llash qobiliyati bilan bog'laydi. Shu bilan birga, ba'zi talabalar ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlar va klinik ko'nikmalar uchun ajratilgan soatlar yetarli emasligini qayd etgan. Talabalar

tomonidan “Terapevtik stomatologiya” hamda “Bola yoshidagi stomatologiya va stomatologik kasalliklarning profilaktikasi” fanlariga ko‘proq dars soatlari ajratish taklifi ilgari surilgan. Bu, ularning fikricha, kasbiy tayyorgarlikni chuqurlashtirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning malaka darajasi va fanlarning o‘qitilish sifati aksariyat talabalar tomonidan ijobiy baholangan bo‘lsa-da, ayrimlari o‘quv jarayonida interaktiv usullardan yetarlicha foydalanilmasligini ta’kidlagan. Natijalardan ko‘rinadiki, stomatologiya yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy faoliyatni mustaqil bajarish, bemorlar bilan samarali muloqot o‘rnatish va deontologik tamoyillarga amal qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishlari zarur. Shu bois, o‘quv jarayonini takomillashtirishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni chuqurroq joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar fikricha, kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan akademik kompetensiyaning eng muhim ko‘rsatkichlari nazariy va ilmiy bilimlarni amaliy hamda nazariy masalalarni hal etishda qo‘llay olish, umr bo‘yi o‘rganish va malakasini oshirib borish qobiliyati va mustaqil ishlay olish ko‘nikmasi. Eng kam ahamiyat berilgan ko‘nikmalar esa — texnik vositalardan foydalanish, axborotni boshqarish, kompyuter bilan ishlash hamda tadqiqot olib borish ko‘nikmalari bo‘ldi. Ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyaning eng muhim ko‘rsatkichlari demak jamoada ishlay olish qobiliyati, shaxslararo muloqot o‘rnatish mahorati va tanqidiy va o‘zini tanqidiy baholay olish qobiliyatidir. Eng kam ahamiyat berilgan sifat esa — fuqarolik mas’uliyati (ya’ni jamiyat hayotida faol ishtirok etish va fuqarolik burchini his etish) bo‘lgan. Shuningdek, talabalar fikricha, zarur kompetensiyalarni egallashga to‘sqinlik qiluvchi omillar bor. Bu kichik kurs talabalarida bu shaxsiy passivlik (faollik yetishmasligi) va katta kurs talabalarida esa o‘quv dasturlarining haddan tashqari ko‘pligi (ortiqcha yuklama) deb topilgan. Stomatologiya fakulteti talabalari quyidagi fanlar o‘quv dasturida haddan tashqari ko‘p yuklamaga ega ekanini ta’kidladilar. 3-bosqichda bola yoshidagi stomatologiya va stomatologik kasalliklarning profilaktikasi fani – 40,7% talabalar tomonidan ortiqcha deb

baholangan, ortopedik stomatologiya – 9,3%, jarrohlik stomatologiyasi – 50% talabalar tomonidan haddan tashqari yuklama bor deb topilgan.

Kasbiy kompetentlik ko'rsatkichlarini aniqlash va reyting asosida baholash bo'yicha tadqiqot

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 70% dan ortiq stomatologiya fakulteti talabalari uchun shifokor kasbini tanlashdagi eng muhim sabab — bemor odamlarga yordam berish va yaqinlarining sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish istagi hisoblanadi. Shuningdek, 10% ga yaqin talabalar uchun eng muhim narsa — sog'liqni saqlash tizimida ishlash imkoniyati, bu yerda muhim narsa diplomning o'zi, nafaqat aniq mutaxassislikdir (eng kam tanlangan javob). 60% dan ortiq stomatologiya fakulteti talabalari kasbiy kompetentlikni egallashdagi asosiy motivatsion omil sifatida moddiy manfaatdorlik va mutaxassislikning nufuzini ko'rsatganlar.


Axborot-bilim mezonini o'rganish shuni ko'rsatdiki:

- 45% talabalar o'z bilim sifati yuqori deb hisoblaydi,
- 53% esa bilim darajasini yetarli deb baholaydi.

Stomatologiya fakulteti talabalari esa quyidagilarni ta'kidlagan:


- Terapik stomatologiya – 3-kurs (12,7%), 4-kurs (9,8%),

- Bola stomatologiyasi va stomatologik kasalliklar profilaktikasi – 5-kurs (6,3%). Talabalar, shuningdek, o'quv dasturiga embrionologiya va deontologiya



fanlarini qo'shish kerak, deb hisoblaydilar, ammo ijtimoiy-gumanitar fanlar blokini keraksiz deb topganlar.

1.stomatologiya fakulteti talabalari o'zlashtirgan kasbiy ko'nikmalari



bo'yicha diagramma.

2. ish beruvchilar tomonidan bitiruvchilardan talab qilinadigan ko'nikmalar va ularning ahamiyati bo'yicha gorizontal grafik

XULOSA va TAKLIFLAR

Talabalarning anketa savollariga bergan javoblarini tahlil qilish natijasida kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida ta'limni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari aniqlandi. Stomatologiya fakulteti: terapevtik stomatologiya, bolalar stomatologiyasi va stomatologik kasalliklarning profilaktikasi. Ushbu fanlar o'qitiladigan kafedralarga tanlov fanlarini ishlab chiqish masalasini ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'qitishda o'qituvchilar talabalar orasida ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berishlari lozim. Bu jarayonda talabalarda:

- bemorlar va hamkasblar bilan o'zaro muloqot asoslarini shakllantirish,
- kichik tibbiyot xodimlari hamda bemor qarindoshlari bilan to'g'ri munosabat o'rnatish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Компетентностно-ориентированное обучение в медицинском вузе [Электронный ресурс] : учеб.-метод.пособие / А. И. Артюхина [и др.] ; под ред. Е. В. Лопановой. – 2-е изд., стер. – Москва : ФЛИНТА, 2014.– 256 с.

2. Смаилова Ж.К. Некоторые аспекты компетентного подхода в высшем медицинском образовании Ж. К. Смаилова // Наука и здравоохранение. – 2010.

– № 1. – С. 43-44.

3. Равен, Дж. Компетентность в современном обществе выявление, развитие и реализация [Электронный ресурс] / Дж. Равен. – Москва, 2002. – Режим досту-

па: <http://fanread.ru/book/1039740/>. – Дата доступа: 31.05.2015.

4. Зимняя, И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования [Электронный ресурс]/ И. А. Зимняя // Российский государственный гуманитарный институт. Аспирантура и докторантура[сайт]. – Режим доступа: <http://aspirant.rggu.ru/article.html?id=50758>. – Дата доступа: 31.05.2015.

5. Хуторской, А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы [Электронный ресурс] / А. В. Хуторской – Режим доступа: <http://vmeste.opredelim.com/docs/77200/index-30064.html>. – Дата доступа: 31.05.2015.

6. ОСВО 1-79 01 01-2013. Высшее образование. Вторая ступень (магистратура). Специальность 1-79 80 01 Акушерство и гинекология. Степень магистр медицинских наук = Высшэйшая адукацыя. Другая ступень (магістратура). Спецыяльнасць 1-79 80 01 Акушэрства і гінекалогія. Ступень магістр медыцынскіх навук. – Введ. 2013-08-30. – Минск, 2013. – 17 с.